

KREDIT MAHSULOTLARINING INFLATSIYAGA TA'SIRI

Qanaatov Anvar

SamISI Bank ishi kafedrasasi asisstanti

Yadgorov Avaz

SamISI Bank ishi va auditi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kreditlarning inflatsiyaga va mamlakat iqtisodiyotiga tasiri va kredit mahsulotlaring inflatsiyaga bog'ligligi o'rganilgan*

Kalit so'zlar: *Inflatsiya, kredit mahsulotlari, talab inflatsiyasi, kredit, kredit turlari,*

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda bir qator islohotlarni boshdan kechirmoqda.

Xususan, pul-kredit siyosatining liberallasuvi, valyuta kursining erkinlashtirilishi, davlat xarajatlarining o'sishi kabi omillar inflatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Bu holat inflatsiyaning manbalari va uning iqtisodiyotga ta'sirini chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Inflatsiya — bu tovarlar va xizmatlar narx darajasining umumiy va doimiy o'sib borishi bilan tavsiflanadigan iqtisodiy hodisadir. Ushbu jarayon iqtisodiy o'sishning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lsa-da, haddan tashqari yuqori yoki barqaror bo'lmagan inflatsiya darajasi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayni paytda, inflyatsiya darajasining oshishi aholining xarid qobiliyatini Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi pasaytiradi, ishlab chiqarish tannarxining ortishiga olib keladi va investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kredit (lot. creditum – qarz, credo – ishonaman, maqullayman) – pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatlarga qarzga berish.

Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor (davlat, bank, korxonalar, xususiy shaxs va boshqalar), ssuda oluvchi tomon esa debitor (qarzdor) deyiladi. Kredit atamasi kelajakda qiymati yoki asosiy qarzni to'lash evaziga boshqa tomonga pul summasi qarzga beriladigan kredit vositasi turiga ishora qiladi. Ko'pgina hollarda, qarz beruvchi asosiy qiymatga foizlar yoki moliyaviy to'lovlarni ham qo'shadi, qarz oluvchi asosiy qarzga qo'shimcha ravishda to'lashi kerak.

Tahlil va Natijalar

Kredit resurslarini banklar tomonidan tartibga solish mexanizmlari yordamida pul aylanmasi toraytiriladi yoki kengaytiriladi, to'lovga qobil talabning ko'payishi yoki qisqarishi yuz beradi, bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish rivojiga rag'bat beradi. Pul massasining o'sishi inflyatsiyaning ildizidir. Mamlakatning pul taklifi pul-kredit organlari tomonidan ko'paytirilishi mumkin. Banklar tomonidan

ushlab turilgan past stavkalar va zaxiralar, ehtimol, pastroq stavkalarda qarz olishga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi va banklar kreditlash uchun ko'proq pulga ega bo'ladi. Natijada iqtisodiyotda ko'proq pul bo'ladi, bu esa inflyatsiyani keltirib chiqaradigan xarajatlar va tovarlarga talabning oshishiga olib keladi. Inflyatsiya sharoitga qarab kreditorlar yoki qarz oluvchilarga foyda keltirishi mumkin. Inflyatsiya tovarlar va xizmatlar narxining umumiy o'sishi va xarid qobiliyatining pasayishi bilan sodir bo'ladi. Bu qarz oluvchilarga foyda keltirishi mumkin, chunki bu ularga qarzlarni qadrsizlangan pul bilan to'lash imkonini beradi. Biroq, u kreditorlarga ham foyda keltirishi mumkin, chunki u narxlarni oshiradi va kreditga talabni oshiradi. Inflyatsiyaning asosiy qoidasi shundaki, u vaqt o'tishi bilan valyuta qiymatining pasayishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, hozirgi naqd pul kelajakdagi naqd puldan qimmatroqdir. Shunday qilib, inflyatsiya qarzдорlarga qarz beruvchilarga dastlab qarz olgan paytdagidan kamroq pul to'lash imkonini beradi. Inflyatsiya haqidagi taxminlarning o'zgarishi kredit mablag'lariga talab va taklifni o'zgartirishi mumkin. Qarz olish va qarz berishning haqiqiy qiymati real foiz stavkasi hisoblanadi. Inflyatsiya darajasi haqidagi taxminlar so'nggi tajribaga asoslanadi, shuning uchun foiz stavkalari haqiqiy inflyatsiya tendentsiyalaridan orqada qoladi.

Kredit inflyatsiyani qanday kuchaytiradi:

Pul massasining ortishi: Banklar kredit berganida, ular yangi pul yaratadilar. Bu iqtisodiyotdagi umumiy pul miqdorini oshiradi, bu esa narxlarning ko'tarilishiga olib kelishi mumkin.

Talabning ortishi (Talab Inflyatsiyasi): Odamlar kredit olib, ko'proq xarid qilsa (uy, mashina, iste'mol tovarlari), bu tovarlarga bo'lgan talabni oshiradi. Agar taklif yetarli bo'lmasa, narxlar ko'tariladi.

"Yomon" kreditlar: Spekulyativ kreditlar (masalan, qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk) narxlarni sun'iy ravishda oshirishi mumkin, bu keyinchalik iqtisodiy pufakchalar va inqirozlarga olib kelishi mumkin. Biz ko'rishimi mumkinki hozirda kredit mahsulotlariga talab yuqori va juda turlari kundan kunga ortib bormoqda. Kredit mahsulotlari — bu banklar va moliyaviy tashkilotlar mijozlarga ma'lum muddatga, belgilangan foiz evaziga qarzga beradigan moliyaviy xizmatlar to'plamidir. Kreditlar jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirish, iqtisodiy faollikni oshirish, biznesni rivojlantirish va iste'mol talabini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Kredit mahsulotlarining asosiy turlari

1. Iste'mol krediti - Kundalik hayotiy ehtiyojlar uchun beriladi. Asosan ta'mirlash, texnika, ma'rifiy xarajatlar, davolanish, to'y, ta'lim va boshqalar. Odatda garov talab qilinmaydi (ba'zida kafillik kifoya).

2. Avtokredit-Yangi yoki ishlatilgan avtomobil sotib olish uchun beriladi. Garov sifatida avtomobilning o'zi qo'yiladi.

3. Ipoteka (uy-joy kreditlari)-Uy sotib olish, qurish yoki ta'mirlash uchun beriladi. Muddat- 10–20 yil. Garov -o'sha uy-joy yoki boshqa ko'chmas mulk. Davlat subsidiyalari ipotekalar ham mavjud.

4. Onlayn-kredit (mikroqarz)- Mobil ilova yoki internet-banking orqali rasmiylashtiriladi. Tasdiqlanish tez (5–20 daqiqa).

5. Investitsion kredit-*Uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish: Ishlab chiqarish liniyasi ochish, texnologiya sotib olish, qurilish ,yangi mahsulot ishlab chiqarish

Bular hozirda barcha mamlakatlarda xususan bizning mamlakatimizda ham ishlatilish darajasi ortib bormoqda. Kredit mahsulotlari o'zining talablari bilan bir qatorda o'zining xususiyatlari ham mavjud ulardan eng asosiylari quyidagilar:

1.MUDDATLILIK- Kredit muayyan muddatga beriladi. Kredit muddati quyidagicha bo'lishi mumkin:

Qisqa muddatli kreditlar — 1 yilgacha

Uzoq muddatli kreditlar — 5 yildan 20 yilgacha (ipoteka, investitsion kreditlar)

Bank kreditni qaytarib olish vaqtini aniq biladi, mijoz esa o'z to'lov grafigini rejalashtiradi.

2. QAYTARILUVCHANLIK

Kreditning eng asosiy xususiyati — olingan mablag'ni to'liq qaytarish majburiyati.Qaytariluvchanlik quyidagilar bilan ta'minlanadi:

Garov (ko'chmas mulk, avtomobil, texnika)

Kafillikalar

Sug'urta

Kredit tarixining monitoringi

Bank nazorati. Bank uchun qaytariluvchanlik — asosiy xavfsizlik omili

3. RISKILILIK -Har bir kredit bank uchun risk bilan bog'liq:

Qaytmaslik xavfi

Muddati buzilishi

Mijozning to'lovga qobiliyatsiz bo'lishi

Garov qiymatining pasayishi

Bozor sharoitlarining o'zgarishi. Shu sababli banklar ****scoring tizimi****, monitoring, garov baholash, sug'urta kabi vositalarni qo'llaydi

4. NAZORAT VA MONITORING- Bank kredit oluvchini kuzatib boradi:

Daromadlar o'z vaqtida kelayaptimi?

Biznes kreditida loyihaning rivojlanishi davom etyaptimi?

Garov holati saqlanayotganmi?

To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilayaptimi?. Bu kredit sifati va xavfsizligini ta'minlaydi.

Kreditlash iqtisodiyotning eng muhim moliyaviy instrumentlaridan biri bo'lib, uning kengayishi yoki qisqarishi narxlar darajasiga – ya'ni inflyatsiyaga bevosita ta'sir qiladi.Kreditlash hajmining oshishi – pul massasining ko'payishi. Har qanday kredit berilishi – bu iqtisodiyotdagi pul massasining oshishidir.Iste'mol kreditlarining inflyatsiyaga eng tez ta'siri bu- Iste'mol kreditlarining o'sishi qisqa muddatda inflyatsiyani tezlashtiradi. Mijozlar texnika, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi tovarlarni

ko'proq xarid qiladi. Talab o'sadi, taklif esa qisqa muddatda tez osha olmaydi. Ipoteka kreditlarining uy-joy narxlariga ta'siri- Kreditlar mavjud bo'lmagan taqdirda ko'pchilik uy sotib ololmaydi. Kreditlar ko'paygan sari uy-joyga talab keskin oshadi. Talab o'sadi va uy narxlari oshadi. Markaziy bank inflyatsiyani nazorat qilish uchun foiz stavkalaridan foydalanadi. Foiz stavkasi pastaysa → kreditlar osonlashadi → inflyatsiya oshadi. Foiz stavkasi oshsa → kreditlar qimmatlashadi → inflyatsiya pasayadi. Shuningdek Ortiqcha kreditlash - iqtisodiy "pufaklar" ni keltirib chiqaradi. Kreditlarning haddan tashqari o'sishi uzoq muddatda katta inflyatsion xavf tug'diradi. Biz bulardan kelib chiqib inflatsiyaga juda ko'p omillar tasir qilish mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Talab inflatsiyasi - tovar va xizmatlarga umumiy talabning taklifdan tezroq o'sishi tufayli narxlarning ko'tarilishiga olib keladi. Kreditlar ko'payganda pul massasi ortadi, bu esa talabni oshiradi. Dunyo misolida AQShda 2020–2021 yillarda kreditlar 22% oshgach, inflyatsiya 7% dan oshdi (so'nggi 40 yildagi rekord). Davlat byudjeti xarajatlarining oshishi-Davlatning ortiqcha xarajatlari (yo'l, qurilish, ijtimoiy to'lovlar) pul massasini ko'paytiradi.

Hozirda O'zbekiston Markaziy banki tahlillariga ko'ra, avgust oyida O'zbekistonda umumiy inflyatsiya darajasi 0,1 foiz bandga pasayib, yillik 8,8 foizni, bazaviy inflyatsiya darajasi esa 7,6 foizni tashkil etdi. Avgustda inflyatsiya ko'rsatkichi o'tgan yilning shu davriga nisbatan (0,5 foiz) biroz past shakllandi. Oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha 0,6 foizga (o'tgan yilning avgust oyida — 0,5 foiz), nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar 0,3 foizga (mos ravishda — 0,7 va 0,4 foiz) qimmatlashdi. Inflyatsiya o'sishida energiya narxlari oshishi asosiy rol o'ynamoqda. 2025-yil yanvar-avgust oylarida umumiy inflyatsiya darajasi o'tgan yilga nisbatan pastroq shakllandi. Regulyatorning izohlashicha, umumiy inflyatsiya ko'rsatkichining o'tgan yilga nisbatan 4,5 foizgacha pasayishi joriy yilda energiya narxlari ta'siri o'tgan yilga nisbatan pastroq ekani bilan izohlanadi. Yanvar-avgust oylarida asosiy guruhlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli yuqori shakllanib, 1,3 foizni tashkil etgan. Nooziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 foizgacha sekinlashgan.

1-rasm. O'zbekistondagi inflatsion ko'rsatgich. www.Daryo.uz



Xulosa

Kreditning inflyatsiyaga ta'siri murakkab, ammo asosiy jihati shuki, ko'p kreditlar inflyatsiyani kuchaytirishi mumkin (ayniqsa, talab inflyatsiyasini), chunki bu pul massasini ko'paytiradi, iste'molni rag'batlantiradi va tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi; ammo, ba'zi hollarda, kredit, ayniqsa, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lsa, inflyatsiyani kamaytirishi ham mumkin (taklifni oshirish orqali).

Talab oshsa, narxlarni ko'targani sababli inflyatsiyani tez oshiradi | Uy-joy narxlarini ko'tarilsa aktivlar inflyatsiyasini kuchaytiradi.

Biznes kreditida

Taklifni oshirsa - inflyatsiyani pasaytiradi; talabni oshirsa - oshiradi. Kreditlarning inflyatsiyaga ta'siri juda yuqori.

Banklar tomonidan past foizli kreditlarni ortiqcha chiqarilishi inflyatsiya vujudga kelish jarayonini tezlashtiradi.

FOYDALINGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992 sonli Farmoni, 12.05.2020 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining veb-sayti www.cbu.uz
3. Uchqun Yunusovich O'roqov, Odiljon Sheraliyevich Olimboyev. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari. Science and Education, 2024.
4. SHERALI SULTONOV, SHERZOD ALILOV, JASUR RAZZAKOV, KHUSAN ISAEV. DEVELOPMENT WAYS OF STOCK MARKET IN UZBEKISTAN (IN THE CASE OF "TASHKENT" REPUBLICAN STOCK EXCHANGE). Journal of Critical Reviews. 2020
5. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров [Текст] / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организаци. – 2014. - No2. – С. 23-27.